

TONG yulduzzi

O'zbekiston Respublikasi bolalari va o'smirlari gazetasi

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqsa boshlagan

2006-yil 4 - 10 - sentabr N:36 (66577)

SAHIFALARDA

AJINA
G'OR SIRI




4-BETDA

ZIYOFATNING
DAVOMI



5-BETDA

JAVLONNING



7-BETDA

MAKTABDA HASHAR



Yozgi ta'til kunlari ko'plab maktablarning bag'ri bolajonlarsiz huvillab qolishini yaxshi bilasiz-a? Ammo bizning bilim maskanimiz bag'ri yozda ham o'quvchilar bilan to'la bo'ldi. Sababi, 1-avgustdan boshlangan «Diqqat, bolalar!» tadbiri kuni kecha nihoyasiga yetdi. Tadbir doirasidagi turli tantanalar, bellashuvlar, bayram dasturlari, sport o'yinlari barchamizda katta taassurot qoldirdi. Ularning ko'ngildagidek o'tishiga nafaqat tuman ichki ishlar bo'limi xodimlari, balki mahalla oqsoqollari va posbonlari, butun jamoatchilik o'z hissalarini qo'shishdi.

Maktabning yuqori sinf o'quvchilari orasida sportning

kurash, futbol, voleybol, gandbol, shaxmat-shashka turlari bo'yicha o'tkazilgan musobaqada g'olib chiqqan o'quvchilar homiy tashkilotlar tomonidan tayyorlangan sovg'alar bilan taqdirlandilar. Maktab ma'muriyati esa ularni «Maqtov yorlig'i» hamda o'quv qurollari bilan mukofotladi.

Maktabimizni yangi o'quv yiliga taxt qilib qo'yish maqsadida har hafta hashar uyuştirdik. Biz maktab hovlisi, bog'dagi daraxtlarni oqladik, qurigan shox-shabbalarni tozaladik, qizlarga suv tashib turdik. Qizlar sind xonalarning eshik-romlarini, oynalarni, parta va stollarni artishdi. Bugun esa o'zimiz tozalagan ozoda, sarishta sind xonalarda yangi o'quv yilini boshlab yubordik.

MAHALLADA HAM...

Ibrat



Istiqlol bayrami arafasida diyorimiz yanada ko'rkmashib ketdi. Yangi-yangi inshootlar, binolar qad rostladi. Jumladan, biz yashaydigan poytaxtimizning Chilonzor tumanidagi 17-mavze ham obodonlashtirildi. Yo'llar asfaltlandi, xiyobonlar barpo etildi, ko'p qavatli uylar chiroyli qilib ta'mirlandi.

Lekin bu xayrli ishlar oxiriga yetmay qoldi. 37-hamda 38-ko'p qavatli binolar oralig'idagi bog' va maydoncha qarosiz holicha qolib ketdi.

Shunda 37-uya yashaydigan Abdurasulovlar oilasi bir xayrli ishga qo'l urishdi. Maydoncha va bog'ni ta'mirlab, qurigan shox-shabbalardan tozalashdi, daraxtlarga shakl berishdi, oqlashdi.

Albatta shuncha ish qilishning o'zi bo'lmaydi, charchatadi kishini. Lekin mahalla ahlining chin dildan qilgan duolari serhimmata oila a'zolari charchog'ini zumda yozib yubordi.

Bahodir RAHMONOV,
10 - sind o'quvchisi.



YASHASIN OZODELIK!

Sap-sariq jo'jachalar hovlimizdag turfa rang gullar orasida chug'urlashib o'ynashardi. Bir nechta tuproqqa bag'rini bergancha go'yo badantarbiya qilar, boshqasi qanotchalarini yoyer yoki oyoqchalarini cho'qib yotardi. Bir payt ulardan birining ko'zi o'rik shoxiga qo'nib turgan momiq patli qushchaga tushib qoldi-yu, o'z tilida chug'urlab, «Pastga tush, don-e», deganday bo'ldi. Qushcha ham darhol ular yoniga tushib, don cho'qilay ketdi. Bir zumda uning atrofini boshqa jo'jachalar ham qurshab oldi. Ularni kuzatayotgan uy egasi kaftidagi donni ularga tutdi. Jo'jachalar birin-ketin egalarining kaftiga chiqib, don cho'qilay boshladilar. Buni ko'rgan jajji kanareyka ham hech ikkilanmay pir-r etib kaftga qo'ndi. Shuni kutib turgan qizcha sekingina kaftini yopdi. Uni avaylab sim qafaschaga soldi-da, eshigini bekitib, yo'lak devoriga ilib qo'ydi. Keyin bulbulga monand ohista hushtak chalgan edi, qushcha ham qisqa-qisqa sayrab javob qildi... Bu qo'shig'ida qafasga tushgan qushchaning erk istagan ovozi mujassam edi. Bundan ta'sirlangan qizcha shosha-pisha qafas yoniga kelib, uning eshigini ochib yubordi. Osmon-u falakka ko'tarilayotgan qushcha endi boshqacha sayrashiga imonim komil.

Anvarxon hoji ota AHMADQORI o'g'li.

OTAM KASBON TANLAYMAN



Mana, yangi o'quv yili boshlandi. Maktabimiz quchog'iga sog'inch bilan otlandik. Direktorimiz Lola opa Huseynova boshchiligidagi «Bilimlar kuni» va «Mustaqillikning 15 yilligi»ga atab o'tkazilgan bayram tantanalaridan yanayam shodlandik.

Ona tili va adabiyot o'qituvchimiz Saida opa Qodirovaning adabiyot to'garagini tashkil qilganini eshitib, chunonam quvondik. Chunki ustozimiz bizga adabiyot tafsiflarni chin

Men yana Mustaqillik tengdoshi sirlarini, tashbeh va dildan o'rgatadi. yunon-rum kurashi to'garagiga ham qatnashaman. Murabbiyim Amrullo Sharipov o'ta talabchanliklari bois qator musobaqlarda faxrli o'rinnarni olganman. O'rtoqlarim Iskandar Hosilov, Umid Zaitov, Jasur Jabborovlar ham doimo shohsupanining yuqori pog'onalarini egallashadi. Mustaqillik bilan qadam-baqadam olg'a intilayotganidan xursandman. U yaratib berayotgan imkoniyatlarning barchasidan unumli foydalanishga harakat qilyapman, ya'ni, ham puxta bilim olish, ham sport orqali dunyoga chiqish - mening maqsadim.

Kelajakda esa men uchun doim sirli ko'ringan otam kasbi - geolog bo'lmoqchiman. Chunki yerosti sir-sinoatlarini o'rganish juda maroqli-da.

Alisher KAROMATOV,

Buxoro shahridagi 32-maktabning 9-sinf o'quvchisi.

NABIRAMGA NASIHATLARI

G'ayratning birinchi dushmani bo'lgan - daftaringga yozib qo'yishga odaln. erinchoqlikdan ehtiyoj bo'll!

* * *

Xamirday ko'pchib, achib ketmayin desang, o'roqqlar bilan bahs va munozara olib kitob o'qib, ilm ol.

* * *

Qiladigan ishlaring yuzasidan kuch qudratingga qarab ish tartibi tuzib olsang, tohqib qolmaysan.

* * *

Kechqurun uxlash oldidan bugungi qilgan ishlaring va ko'rgan-bilganlaringni kundalik.

SHU SIZGA SAVDAM

1. Fil daqiqasiga 10 marta, sichqon 200 marta nafas oladi.
2. Ko'k kitning vazni 150 tonnagacha. Quruqlikda bu og'irlikdan u halok bo'lar edi.
3. Bambuk daraxt emas, balki baland bo'yli o't bo'lib, bo'yi 20 metrgacha boradi. Oddiy o't esa ko'pi bilan 100 sm.gacha o'sishi mumkin.
4. Urg'ochi sher sutkasiga 20 soat dam oladi. Qolgan vaqtini ov bilan o'tkazadi.
5. Tovuq kamalakning barcha rangini ko'rsa, mushuklar hamma narsani kulrang tusda ko'rар ekanlar.
6. Urg'ochi hind bo'g'ma iloni 1 marotabaning o'zida 107tagacha tuxum qo'yadi.
7. Laylaklardan farqli o'laroq turnalar hech qachon daraxtga qo'nishmaydi.

To'plovchi: Mohira ABDUSHUKUROVA,

Toshkent shahar, Uchtepa tumanidagi 116 - maktabning 7-sinf o'quvchisi.

ONAJON

Muqaddassiz, onajon,
Go'yo suv va havodek.
Allangiz sehrlaydi,
Ko'ngillarni navodek.
Mehr to'la ko'zingiz,
O'xshab ketar oftobga.
Ta'rifingizni yozsam,
Sig'mas aslo kitobga.
Oq sutingiz bebah,
Juda shirin boldan ham.
Zavol ko'rmang onajon,
Siz-la olam muhtaram.



Dilafro'z EGAMBERDIYEVA,
Qashqadaryo viloyati, Qarshi shahridagi
Alisher Navoiy nomli maktabning 9 - sinf
o'quvchisi.

MUSTAQILLIK

O'zbek degan xalqni ham,
Tanitding dunyolarga.
Har ko'chasi, uyini,
To'ldirding ziylarga.
Yigitlarga kuch berding,
Olishar go'yo qoplon.
Qizlari Barchin kabi,
Suluv, pokiza, jonon.
Bog'larining mevasi,
Nur emadi quyoshdan.
Sakrab-sakrab o'tadi,
Jilg'alari har toshdan.
Vatanimning madhini,
Kuylayman g'urur bilan.
Istiqlolning havosin,
Simirgum surur bilan.

Men Qashqadaryo viloyati, Chiroqli tumanidagi Paxandi qishlog'ida joylashgan Shodi Shoimov nomli maktabda tahsil olaman. Mening bo'sh vaqtlarim tumanimizdagagi o'quvchilar Ijodiyot markazida o'tadi. Markaz direktori Abray Xudoyberganov bu markazda turli to'garaklarning faol ish yuritishini nazorat qilib turadilar. Men markazdagi tikuvchilik to'garagiga qatnashaman. Bizga tikish-bichish sirlarini Ozoda opa Toyloqova o'rgatadilar. Mening bu mashg'ulotlarga qatnashayotganidan oilamdagilar ham xursand. Kelajakda muallima bo'lish niyatim bor. O'rganayotgan hunarim esa menga kelgusida asqotishi aniq. Men Ijodiyot markazimizda bundan ham ko'proq to'garaklar tashkil qilinishini istardim. Biz undan juda mammun bo'lardik.

Gulzoda YUSUPOVA.



KUTUBXONADAGI HANGOMA

Men bo'sh vaqtlarimda kitob o'qishni yoqtiraman. Asosan, jahon badiiy adabiyotiga qiziqishim baland. Bir kuni kutubxonadan Jyul Vernning «O'n besh yoshli kapitan» asarini oldim. Uya kelib kitobni ochsam, ichidan ikki ming so'm pul tushdi. Pulni olib cho'ntagimga soldim, so'ngra kitobni zavq bilan o'qiy boshladim. Ikki kundan so'ng kitobni qaytarish uchun kutubxonaga bordim. Kutubxonachi mendan yana qanaqa kitoblar olishimni so'radi. Men yana Jyul Vern asarlarini olishimni aytdim. Shunda ular: - Nega faqat bu adibning asarlarini olayapsan, - deb so'radilar.

- Chunki bir safar shu adibning kitobi ichidan pul chiqdi-da, dedim.

Bu gaplarni eshitib, kutubxonachi ham «Voy shumtaka-ey», deb qoldilar. Aziz bolajonlar, Sizda ham mana shunday voqebo'lishini istasangiz, kutubxonaga kirib, Jyul Vern asarlarini mutolaa qiling. Kitob o'qishdan aslo charchamang.

Javlon FARMONOV,
Toshkent shahridagi 206-maktabning 8-sinf o'quvchisi.

YULDUZ BO'LAY BIR LAHZA

Eh, bunchalar tiniqsan osmon,
Ko'ksingda yo'q zarracha g'ubor.
Behududsan, sendek bepoyon,
Keng bo'lmoqlik bag'rimga dushvor.

Senga tikka boqardim quyosh,
Ko'zlarimda bo'lqanda olov.
Muz yuraklar bermasdi bardosh,
Men ham yonib turganda lov-lov.

Bunchalar ham maftunkorsan oy,
Yerda hamma senga mahliyo.
Yonginangda bo'lsam hoynahoy,
Borligimni payqardi dunyo.

Bo'ldi, meni qo'yvorgin zamin,
Bag'ringdagi rishtalarim uz.
Mayli, erta qulab tushayin,
Ko'kda bo'lib bir lahza yulduz!

Kelajak qanotlari

POTXTAQTGA SAFAR

Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi Bolalar sportini rivojlantirish jamg' armasi joylarda zamonaviy sport majmualari barpo etib, maydonchalar qurish, eskilarini qayta ta'mirlash va ularni kerakli jihozlar bilan ta'minlashdek xayrli ishlarga hamisha bosh-qoshdir. Maktab o'quvchilari o'rtasida sport musobaqlari o'tkazib, ularni xorijga o'quv mashg'ulotlariga jo'natishda ham faoldir. Bugun bizdek QQR va viloyatlardan kelgan 160 nafardan ortiq gimnastikachilarni poytaxtga jamlagan ham aynan shu jamg' armadir. Mashg'ulotlarimiz XTBga qarashli 14-sonli gimnastikaga Iqtisoslashgan olimpiya zahiralari Bolalar va o'smirlar maktabida bo'lib o'tdi.

O'zaro tajriba almashishga kelgan murabbiylar qamrovi turlicha edi. Qaysidir murabbiy viloyatidagi eng kuchli sportchisini olib kelsa, boshqasi yosh gimnastikachilarni zamonaviy «Gymnova» gimnastik jihozlari bilan yaqindan tanishtirdi. Gimnastikachilarimiz mashg'ulotdan bo'sh paytlarida poytaxtning hayvonot bog'i, sirk, Temuriylar tarixi va «Olimpiya shon-shuhrat»i muzeylelariga bordilar.

Yosh gimnastikachilarining nafis raqsulari barchani hayajonga soldi. So'ngra, viloyat jamoalari o'rtasida turli quvnoq sport musobaqlari tashkil etildi. Bir so'z bilan aytganda, olis tumanlardan kelgan sportsevar bolalar 15 kunlik mashg'ulotni olam-olam taassurotlar bilan yakunlashdi.

Abdurayim JUMAYEV,

Surxondaryo viloyati, sport gimnastikachilarini bosh murabbiyi.

«GUVALAK» GIMNASTIKACHILARI

Biz Qashqadaryordan 19 nafar sportchi poytaxtga kelgandik. Afsuski, bunday chiroyli tadbirni boshqa sportchilar ko'risha olmadidi. Biz ularga o'z taassurotlarimizni aytamiz. «Guvalak» sport majmuamiz bo'lib, u 2005-yil 13-aprelda ochilgan. Avvaliga 20 nafar o'g'il-qiz kurash turlari bilan shug'ullangan majmuada bugungi kunda 600 nafardan oshiq yoshlar qatnaydi. Shulardan 260 nafari «Xalq ta'limi a'llochisi» Sabohat Odilovadan badiiy gimnastika sirlarini o'rganishmoqda. «Guvalak»imizdagi ikki nafar sportchi qizimiz Germanianing Kyoln shahriga borib, mahoratlarini ko'rsatgach, dastlab 80 nafarni tashkil etgan gimnastikachilarimiz soni birdaniga 120 nafarga yetdi. Sababi, dugonalarinining g'alabasi ularni ham sport olamiga chorlagan edi. Qizlar salomatligi uchun foydali bo'lgan ushbu sport turi viloyatimizda ommalashib boryapti.

O'ktam SULTONOV,


*Qashqadaryo viloyati, Koson tumanidagi
«Guvalak» bolalar sport majmuasi direktori.*

XALQIM

Xalqim, bugun o'zgachadursan,
Quvonchlarin ko'kka sig'mas hech.
Jamolingni ta'riflasam ham,
O'zim mahliyodirman har kech.

Bahor, yoz, kuz, qishing o'zgacha,
Chaman-chaman gullar o'zgacha.
Iforing bunchalar shirin bo'limasa,
Vatanim tanhosan, o'zing yagona.

Bulbulday kuylovchi navolaring bor,
Hayratga soluvchi dostonlaring bor.
Biz uchun muqaddas siymolaring bor,
Ozod millatimiz, qomusimiz bor.




QISHLOG'IM

Yetti iqlim tan olgan,
Butun o'zbek elimni.
Azaldan o'zbek yoygan,
Keng jahonga bilimni.

Shaharda keng qishloq bor,
Tog'lari-yu bog'i bor.
Qadim nomi Qiz sarak,
Qishlog'imdir Xisorak.

Tarif bersam qishloqqa,
So'limdan so'lim diyor.
So'lim go'sha bog'larida,
Shifobaxsh bir suvi bor.

*Sadoqat YODGOROVA,
29-umumiyy o'rta ta'lim maktabining 11-sinf o'quvchisi.*



Sport olamida, ayniqsa, futbolda Abduraimovlar, shaxmatda Hamroqulovlar, kurashda esa Shokirjonovlar sulolasi qo'lga kiritgan va kiritayotgan yutuqlar yurtimiz sport muxlislarini doimo qiziqtirib keladi.

Sportning go'zal va murakkab turlaridan bo'lmish sport gimnastikasida ham shunday oilaviy jamoa bor. Bu - Irina Karimjonova va uning yosh champion qizlari Stella va Diana Karimjonovalardir.

Stella 1990-yil Toshkent shahrida tug'ilgan. Sport gimnastikasi bilan 1996-yildan buyon shug'ullanib keladi. Ustozi o'z onasi Irina opadir. Ona farzandim deb mashg'ulotlarni yengil-yelpi o'tkazmagani sababli, yoshidayoq sport gimnastikasi bo'yicha sport organ. U mamlakat chimpionligiga jamoa murabbiylarining nazariga vaqtlarida qo'shiq kuylaydi, mazali taomlar Sayohatlar uning o'rta maktabni Unga yurtimiz omad tilab qolamiz.

Stella 1990-yil Toshkent shahrida tug'ilgan. Sport gimnastikasi bilan 1996-yildan buyon shug'ullanib keladi. Ustozi o'z onasi Irina opadir. Ona farzandim deb mashg'ulotlarni yengil-yelpi o'tkazmagani sababli, yoshidayoq sport gimnastikasi bo'yicha sport organ. U mamlakat chimpionligiga jamoa murabbiylarining nazariga vaqtlarida qo'shiq kuylaydi, mazali taomlar Sayohatlar uning o'rta maktabni Unga yurtimiz omad tilab qolamiz.

Diana Karimjonova 1994-yilda tug'ilgan. Oиласидаги мухит уни ham sport olamiga elta boshlagan. Bu yil poytaxtimizdagi 83-o'rta maktabning 7-sinfiga o'tdi. U ham O'zbekiston kubogi musobaqlarida bir necha bor g'olib chiqqan. Ayni chog'da sport ustaligiga nomzod talabini bajaryapti. Biz Dianadan kelgusidagi orzularini so'riganimizda, olimpiya musobaqlarida qatnashib, champion bo'lish niyati ekanini aytdi. Suzish bo'yicha mahoratini oshirib, bo'sh vaqtini unumli o'tkazotganligini ko'rib dildan quvondik.

Xurshida BOYMIRZAYEVA.

IRINA OPANING QIZLARI

erishgan, termal ham tushgan. Bo'sh musiqa tinglaydi va pişirishni yoqtiradi.

jon-u dilidir. Stella bu yil tamomladi. Kelagi oldinda, sportiga ulkan yutuqlar keltirishiga

«ISTIQLOL» DAN HAMMA SHOD

Poytaxtimizdagi Sobir Rahimov tumanida qurilgan «Istiqlol» bolalar sport majmuasi tom ma'noda tashna odamga berilgan chashmadek bo'ldi. 2004-yilning dekabrida «Agregat» zavodiga qarashli futbol maydoni butunlay qayta ta'mirlanib, «Istiqlol» bolalar sport majmuasi yangidan ish boshladı.

Singan o'rindiqlar o'rnini yangilari egalladi. Futbol maydoni, tennis korti, voleybol, basketbol maydonchalari, yugurish yo'lakchalarini barpo etildi.

Futbolchilar uchun zamonaviy yuvinish va yechinish xonalari bor. Qo'l to'pi, basketbol, mini futbol o'yinlarini o'tkazish imkoniga ega. Ayniqsa, nogironlar uchun maxsus yuvinish va yechinish xonalari mavjudligi maqtovga loyiq. Shu oz fursatda juda ko'pchilikning sevimli dargohiga aylandi.

Qolaversa, poytaxtimizdagi 16-BO'SM futbolchilar qishin-yozin o'z mashg'ulotlarini shu yerda o'tkazadilar, «Istiqlol» bolalar sport majmuasi atrofidagi 23-, 28-, 36-, 123-, 159-o'rta maktab o'quvchilari jismoniy tarbiya va sport to'garaklaridan darslarini o'tishda majmua imkoniyatlaridan foydalanmoqdalar. O'z-o'zidan yuqoridagi maktab o'quvchilarining «Umid nihollari» sport musobaqlari ham shu majmuada o'ta boshladı.

Sobir Rahimov tumani aholisini, jumladan, Qorasarov, Ibrat, Xastimom, Islom ota, Gulzor, Istiqlol, Navbahor, Cho'pon, Sebzor, Guruchariq, Paxta, Oxunboboyev, Komiljon G'afurov nomidagi mahallalarda yashovchi har qanday yosh-u qari bilan suhbatlashmang, ular yo «Istiqlol»da qandaydir sport turi bilan shug'ullangan yoki qaysidir musobaqani kuzatgani kelgan bo'ladi. Birgina 2005-yilning o'zida stol tennisi, basketbol, shaxmat-shashka va estafeta musobaqlari o'tgani bo'lsa, bu yildan badiiy gimnastika bo'yicha Toshkent shahar ochiq birinchiligi ham shu sport majmuida o'tdi. Yaqinda majmuadagi karate, taekvondo, futbol, shaxmat-shashka, yengil atletika to'garaklar safiga badiiy gimnastika to'garagi ham qo'shildi.

Biz «Istiqlol» sport majmuasining «Qaydlar daftari»ni varaqlar ekanmiz, bu yerda o'zlarining sport tadbirlarini o'tkazgan bir qator tashkilotlar vakillarining minnatdorchilik dil so'zlarini o'qiymiz. Bu dil izhorlarida «Istiqlol» bolalar sport majmuasi tomonidan «Mehr-qadam» nogironlar sportchilar jamiyatini otaliqqa olinganidan shodlanish ham bor.

Ma'mura MADRAHIMOVA.



Bu voqealari bo'lganim uchunmi, meni juda yaxshi ko'rardilar. Uylariga borsam, kap-katta bola bo'lishimga qaramay, rosa erkatalatdilar. Tog'amning bolalari ustidan kulib, «erkatoy» deb masxara qilishardi. Shodiya buvum o'tgan yili bizni tashlab ketdilar. Ularni tez-tez tushlarimda ko'rib turardim. Bu yil dadajonim tug'ilgan kunimga velosiped sovg'a qildilar. Uni minib goh do'konga, gohida esa o'rtoqlarim bilan poygaga chiqib turardim. Xullas, shunday kunlarning t u s h i m d a Ular juda xafa

- Bolam, - qovoqlarini k e t g u r minmagin, dedilar.

Men rini tu- t a s i m e n i yubordilar. velosipe-



ketayapman-u, tushimni bot-bot eslay boshladim. Do'konga borib, hamma narsani xarid qilgach, orqaga qaytdim. Yo'lda katta chorrahani kesib o'tish uchun orqa tomonimga qaraganimni bilaman, men tomon «uchib» kelayotgan «Neksiya»ga ko'zim tushdi. Na to'xtashni, na yurishni bilmay, shoshib qoldim. Birdan ko'zimning oldi qorong'lashib, boshim aylanib ketdi. Ko'zimni kasalxonada ochdim. Ne ko'z bilan ko'rayki, tepamda buvum o'tirbdilar.

-Buvijon, meni kechiring, gapingizga kirmadim, - dedim yig'lamsirab. Ko'zimning oldidagi parda ko'tarilib, buvumning o'rniga oyijonimni ko'rdim. Ular boshimni silab o'tirardilar.

-Nima bo'ldi, -dedim arang lablarimni qimirlatib. Bilishimcha, haligi uchib kelayotgan mashina meni turtib yuborgan, oqibatda kasalxonaga tushib qolgan ekanman. Hayriyatki, kasalxonadan sog'-omon chiqib keldim. Bu voqeadean keyin boshqa velosiped minmaydigan bo'ldim.

*Umid XOLMURODOV,
Toshkent viloyati, Yuqori Chirchiq tumani, o'quvchi.*

Bu voqealari bo'lganim uchunmi, meni juda yaxshi ko'rardilar. Uylariga borsam, kap-katta bola bo'lishimga qaramay, rosa erkatalatdilar. Tog'amning bolalari ustidan kulib, «erkatoy» deb masxara qilishardi. Shodiya buvum o'tgan yili bizni tashlab ketdilar. Ularni tez-tez tushlarimda ko'rib turardim. Bu yil dadajonim tug'ilgan kunimga velosiped sovg'a qildilar. Uni minib goh do'konga, gohida esa o'rtoqlarim bilan poygaga chiqib turardim. Xullas, shunday kunlarning t u s h i m d a Ular juda xafa

- Bolam, - qovoqlarini k e t g u r minmagin, dedilar.

Men rini tu- t a s i m e n i yubordilar. velosipe-

-U yerda ajinalar bo'lsa kerak, nomi bekorga «Ajina g'or», deyilmaydi-ku, - dedim men vahima bilan.

-Qo'ysang-chi, shunchaki safsata bu, -dedi Zokir beparvogina.

-Kel, buni sinab ko'ramiz, siri nimadaykin, - dedim Zokirga sirli boqib. Bu gapim unga ham ma'qul bo'ldi va ertasi kuni alohida tayyorgarlik ko'rib, g'or ichiga kiradigan bo'ldik.

Ertasi kuni fonus, arqon olib, g'or oldiga tirmasha-tirmasha bir amallab chiqib oldik. G'or ichiga kirib borarkanmiz, ikkimizni ham vahima bosdi. G'orning ichi qop-qorong'i ekan. Fonuslarimizni yoqib, muzdekkina shabada hamrohligida ichkariga kira boshladik. Ichkarida katta tekislik bo'lib, bu yerda yoqilgan gulkandan

«Birni ko'rib fikr qil, birni ko'rib zikr qil», degan dono xalqimiz. «Kelajak ovozi» Respublika yoshlar ko'rik-tanlovida ishtirok etar ekanman, ushbu naql yodimga tushdi. Negaki, men bu tanlovda o'zga bir olamga tushib qolganday bo'ldim, go'yo. Biz yo'naliшимиз badiiy-publisistika bo'lgani bois, bu yerga turli viloyatlardan qalbi mehrga, muhabbatga limmo-lim to'lgan ijodkor o'g'il-qizlar tashrif buyurishdi. Ushbu shijoatkor yoshlarni ko'rib, ularga havas qilib, ularning qalbidagi Vatanga muhabbat, tabiatga oshuftalik, sadoqat kabi pokiza tuyg'ularga tahsinlar o'qidik. Tanlov jarayonlari shiddat bilan o'tayotgan bo'lsa-da, hech kim bir-birini raqib deb hisoblamadi. Go'yoki bir toifaga mansub, bir-birini

AJINA G'OR SIRI

Vahimali ovozimiz toshlarga urilib, yana ham dahshatli eshitilar, Zokir ikkimiz qochishning payida bo'lib, bir-birimizga yo'l bermasdik. Shu payt qo'limdag'i fonusim pastga tushib ketdi. Atrof qop-qorong'i bo'lib qoldi. Qop-qorong'i g'orning devorlarini paypaslab, boyagi duch kelgan tekislikni qidira boshladik. Tashqarida ham qorong'i tushgan bo'lsa kerak, g'orning ichi zimziyo edi. Biz shu yerlarda qolib ketishdan qo'rqib



sog'ingan insonlar to'planishgan-u, ularning oq qog'ozga to'kilgan dard-u hasratlarini faqat shu insonlar tushunishadi. Men bu tanlovdan juda ko'p narsa o'rgandim. Va she'riyatning men bilmagan, men his qilmagan qirralari ko'pligiga yana bir bor amin bo'ldim. Ushbu

tanlovni tashkil qilgan

O'zbekiston madaniyati va san'ati forumi jamg'armasi hamda

O'zbekiston Respublikasi «Kamolot» YoIH Markaziy kengashiga o'z minnatdorchiligidagi bildiraman.

*Feruza BERDIYEVA,
Toshkent Davlat agrar universiteti kasbiy ta'lim yo'naliishi 3-bosqich talabasi, «Kelajak ovozi» ko'rik-tanlovi Respublika bosqichi ishtirokchisi.*

ORZU DARAXTI

Tumanimizda manzarali joylar juda ko'p. Ayniqsa, yoz oylarida dam oluvchilar soni rosa ko'payadi. Baland tog'lar bilan o'ralgan pasttekisliklarda katta-katta daraxtlar bor. Ulardan biriga turli-tuman matolar bog'lab qo'yilgan. Buning sababini so'raganimda, oyijonim:

-Bu daraxt biz kichkinaligimizdan buyon bor. Jamalak soch qizchaligimizda ham bu yerga odamlar kelib, turli niyatlar qilib matolar bog'lab ketishardi. Bu daraxtning ta'rifini men ham oyijonimdan eshitganman, - deya hikoyalarini boshladilar.

Aytishlaricha, bu yerda katta qishloq bo'lgan ekan. Qishloq aholisi ko'chmanchi xalq bo'lib, u yurishgan. Bir kuni yashovchi yigit bilan qo'yishibdi. Yigitning esa yilqi boqarkan. Bir ayiq oralab, yilqilarni yeb sarosimaga tushgan ayiqni o'ldirishni iltimos o'g'lini yoniga olib, baland ketishibdi. Katta ayiqni uzoqlarga borib qolishibdi. o'tibdi, kunlar ketidan oylar ahli ovga ketgan ovchi bilan o'g'lini rosa kutishibdi. Sovuq kunlar boshlanishi bilan qishloqdagilar ko'chish taraddudiga tushib qolishibdi. Lekin qiz ko'chishga sirayam ko'nmabdi. Qizning ota-onasi harchand urinmasin, u mana shu daraxt tagiga o'tirib olib, qallig'i ini shu yerga kutishini aytibdi. Xullas, qizning ota-onasi yig'lay-yig'lay jigarporasini shu yerga tashlab ketishibdi. Oradan bir yil o'tibdi. O'sha qishloqdagilar yana shu yerga ko'chib kelishibdi. Ota-onasi entikib daraxt tagiga kelishsa, qiz g'oyib bo'lganish... Shu-shu na qizni va na ovchi yigitning daragini topa olishmabdi. Qizlarini, kuyovlarini topa olmagan ota-onasi topish maqsadida bu daraxtgina birinchi marta mato bog'lashgan ekan.

Hali-hanuz bu yerga kelgan odamlar orzu-umidlar qilib, shu an'anani davom ettirishadi va daraxtgina turli matolar bog'lab, yaxshi niyatlar qilishadi.

*Xusnora TO'LAGANOVA,
Toshkent viloyati, Angren shahri.*

Kunlardan bir kun...

qolgan o'tinlar turardi.

-Ana ko'rdingmi, bu yerda odam bo'lgan, - dedi Zokir.

Biz yana ham ichkariga kira boshladik. Shu payt ichkaridan allaqanday ovozlar kela boshladik. Qo'rqqanimizdan «ajina» deb baqira boshladik.

ketanimizdan bir-birimizni ayblay boshladik. Ikkalamiz charchaganimizdan keyin bir-birimizni arang topib, muzdek devorga suyalgancha uxbol qolibmiz... Oradan qancha vaqt o'tdi bilmaymanu, bir mahal shovqin-surondan uyg'onib ketdim. Yaxshilab quloq soldim, ovoz pastlikdan kelardi.

Bor ovozda baqira boshladim. Bizni qidirib uyimizdagilar kelishayotgan ekan.

Oradan bir necha kun o'tgach mahallamizdagi Davron degan bolaning qo'lida fonusimni ko'rib qoldim. Qayerdan olding buni, deb so'rasam, katta adirga o'ynagani borganimizda o'sha yerdan topib oldim, deydi.

Keyin bilsam, biz adirning tepasidan borgan ekanmiz, bolalar esa pastki tekislikda o'ynab yurishgan ekan. Zokir ikkimiz bu gapidan na kulishimizni va na yig'lashimizni bilmay qoldik...

*Shorasul BEGMATOV,
Surxondaryo viloyati, Sariosiyo tumani.*

KELAJACIM OYNASI

O'zbekiston Respublikasi «Kamolot» YoIH Markaziy kengashiga o'z minnatdorchiligidagi bildiraman.

«KELAJAK OVOZI» -

«BIRINCHI SHE'rim...»

Qo'shaloq bayram bilan qutlash bahonasida shoir bilan dildan suhabat qurgimiz, bolalik xotiralari, orzulari, ustozlari haqida, shuningdek, bugungi bolalar adabiyoti xususidagi fikrlarini bilgimiz keldi.

Orangizda samolyotda uchishni orzu qilmaydiganlar topilmasa kerak. Abdurahmon akangiz ham xuddi sizdek futbol o'ynab, anhorlarda cho'milib, velosiped minib yurgan bolalik damlarida fazogir bo'lishni, o'zi tug'ilib o'sgan Yangiyo'l tumanidagi so'lim Niyozbosh qishlog'i dala va bog'lari, ko'cha va gulzorlarini yuqoridan tomosha qilishni orzulagan ekan. 4-sinfda o'qib yurgan kezlarida tuman gazetasida bir qizchani maqtan yozishganini ko'rib, qalbida she'riyatga ishtiyoq uyg'onibdi.

O'qituvchisi Lolaxon Yusupovadan she'r yozishning hadisini olib, daftar-daftarni «she'rlar» yoza boshladi. «She'r» so'zini qo'shtirnoqqa olganimizdan ularning qanday «ash'orlar» bo'lganini fahmlagandirsiz-a? Har bir yozgan mashqi ko'ziga «olov»dek ko'rindari o'sha damlarda. «Ustoz ko'rmagan shogird ming maqomga yo'rg'alar» degan naqlining mag'zini esa biroz keyinroq chaqib,

«Yangiyo'l» tuman gazetasi qoshidagi «Orzu» adabiy uyushmasi mashg'ulotlariga qatnay boshladi. «Birinchi ustozim» deya ardoqlaydigan inson - Obid Rasuldan ko'p narsalarni o'rgandi. O'sha yillari yozilgan «Oyijonim yopgan non» nomli mashqini, birinchi she'rim, deb tan oladi.

Saboq olishni keyinchalik O'zbekiston xalq shoiri Quddus Muhammadiyed ustoz boshqargan «Binafsha» to'garagida davom ettirdi.

Undagi she'riyatga bo'lgan ishtiyoq O'zbekiston Milliy universitetining jurnalistika fakultetiga yetakladi. 1986-yildan «Cho'Ipon» nomidagi NMIUda mehnat qila boshladi. O'zbek bolalar adabiyotining iste'dodli vakillari Anvar Obidjon, Tursunboy Adashboev, Hamza Imonberdiyev (Ollo Rahmatiga o'lgan bo'lsin), Muhammad Rahmon, Tohir Maliklar bilan birga ishlash nasib qilganidan, ulardan noshirchilik sirlarini o'rganganidan faxrlanib yuradi. O'nlab bolalarbop kitoblari chop etilgan

DADAJONIM, SOG' BO'LING!

Uyimizning quyoshi,
Oilamizning boshi,
So'zida tamal toshi,
Dadajonim, sog' bo'ling.

Onam bilan baxtlisiz,
Har yumushda ahdlisiz,
Bizla toj-u taxtlisiz,
Dadajonim, sog' bo'ling.

Ko'zingizda mehr bor,
Dilingizda yo'q g'ubor,
Sizsiz dunyo bo'lar tor,
Dadajonim, sog' bo'ling.

*Ma'mura MASHARIPOVA,
Alisher Navoiy nomli Nafis san'at
litseyining 7-«A» sinfi o'quvchisi.*

shoirning O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasiga a'zo bo'lganiga ham o'n yildan oshibdi. «She'rlaringiz qahramonlari siyosini qayerdan olasiz?» degan savolni uchrashuvlarda ko'p berishadi unga bolajonlar.

-Farzandlarimning, sizlarning hayotingiz, yurish turishlaringiz menga ilhom beradi. She'rlarimning asosiy qahramonlari ham sizlarsiz,-deydi ularga kamtarlik bilan jilmayib boqib.-Mana bu she'rimni bir o'qib ko'ring-a:

Hech biringiz Ro'zining holatiga tushmaganingiz tayin. Lekin orangizda, oyijon, mehmonlar qachon ketishadi, deya onasini mulzam qilganlar ham yo'q emas, shundaymi? Men biroz bo'rttirib, sizlarni kuldirishga harakat qildim-da...

SHE'RLAR KITOB, KITOBLAR KUTUBXONA BO'LADI

Shoirning ana shunday tili ravon, misralari sodda va o'ynoqi she'rlari jamlanib, kitob bo'lyapti.

Bunday kitoblar esa javonlaringizni to'ldiryapti.

-Tan olishimiz kerak,-deydi shoir mammuniyat bilan, bolalar adabiyoti, ayniqsa, o'zbek bolalar adabiyoti so'nggi yillarda sezilarli darajada rivojlanyapti, adadi ko'pa yapti. Kitobchalar yangi yangi ruknlar ostida, rangli holda nashr etilmoqda. Ammo bir narsani unutmasligimiz lozimga o'xshaydi. U ham bo'lsa, sifat masalasi. Adabiyotda bosh mezon son emas, sifat bo'lmog'i kerak. «Tong yulduzi» gazetasi sahifalarida bolalar yozuvchilari, shoirlarining hayotlariga oid maqolalar, ijodlaridan namunalar muntazam berib borilsa, bu borada oldinga yana bir qadam qo'ygan bo'lardik...

Shoirning fikrlarida jon bor, albatta. Ijod ahli orasida kitob chiqarish borasida «poyga» o'yanayotganlar ham yo'q emas. Ayniqsa, «Zulfiya» mukofotiga nomzodi qo'yilgan qizlarning mantiqan sayoz, mazmunan bo'sh she'rlarini jamlab, shoshma-shosharlik bilan kitob chiqartirib olayotganlarini ko'rib, xafa bo'lib ketasan kishi. Bu holdan benazir shoiramiz Zulfiyaxonim-

ning ruhlari ham ranjiyotgandek tuyuladi, nazarimizda...


Keling, bu gaplarni qo'ya turaylik-da, mustaqilligimiz shukuhini yana-da chucherroq his qilaylik. Sevimli shoirimizni unvon bilan qutaylik. Ulardan quvnoq she'rlar, yangi-yangi qiziqarli kitoblar kutib qolishimizni o'zlariga aytaylik.

Feruza JALILOVA.

Aziz o'quvchilar, xabarlingiz bor, mustaqillik bayrami arafasida Prezidentimiz Farmoniga ko'ra ko'plab yurtdoshlarimiz fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, san'at, ma'naviyat va ma'rifat, ommaviy axborot sohasida erishgan yutuqlari, soha rivojiga qo'shgan munosib hissalari uchun qator unvonlar, orden va medallar, ko'krak nishonlari bilan mukofotlandilar. Taqdirlanganlar orasida siz tanigan, bilgan insonlar, hamshaharingiz, hamqishlog'ingiz ham bordir. Ular haqida yozing, faxr bilan yurtga taniting.

Maktublariningizni kutib qolamiz.

Unvon muborak!



Ijod ahli, ayniqsa, siz bolajonlar uchun qalam tebratadigan yozuvchi va shoirlarning qalbi xuddi siznikidek sof va beg'ubor, yuragi osmonlarcha bepoyon, tili tilingizdek sodda va ravon bo'ladi, desak ishonavering. Shunday bo'limganida:

Sevinchoy opasini,

Maktabiga kuzatib.

«To'rt» ya «besh» olib keling,- der Zebo qo'l uzatib.

«To'rt» va «besh»ning neligin,
Qaydan bilsin qizgina.

Bog'chaga ham bormagan,
Yuzlari qirmizgina.

Maktabdan qaytgach Sevinch,
Papkasin ochar shosha.
Tortni topa olmasdan,
Zebo boshlar xarxasha, -

kabi chehrangizga nim tabassum yogurtiradigan misralarni yoza olarmidi?! Bu quvnoq she'r ana shunday qalbi bola insonlardan biri, sevimli shoirimiz Abdurahmon Akbarniki.

Hozirda «Cho'Ipon» nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyida muharrir bo'lib mehnat qilayotgan Abdurahmon akangiz hayotida yaqinda quvonchli voqeа sodir bo'ldi. Mustaqillik tantanalari arafasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga binoan «O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi» unvoni bilan mukofotlandi.



ZIYOFATNING DAVOMI

-Ol, Ro'zivoy, nokdan ol,
Mana qaymoq, mana bol.
Qo'ya tur shakar, qandni,
Choyingga novvotdan sol.
Qazidan ye, go'shtdan ye,
Yo qovun, yog'li patir.
Oh, oh, palovto'raning,
Ta'mi olamga tatir...
Mehmonlar tarqalishgan,
Quvonchdan yashnab ko'zi.
Tinmay manzirat qilar,
O'ziga o'zi... Ro'zi...





O'tganlarni xotirlash, qadrlash haqida gap ketganda, «Tong yulduzi» tahririyatida uzoq yillar mobaynida ishlagan marhum hamkaslarimiz siymolari ko'z oldimizga kelaveradi. Bu qutlug' dargohda ne-ne insonlar, adib-u shoirlar mehnat qilishmagan deysiz?! Ularni xotirlash, yodga olish siz-u bizning muqaddas burchimizdir.

Bugun ham ana shunday insonlardan biri - uzoq yillar mobaynida tahririyatda matn teruvchi bo'lib ishlab kelgan xokisor inson Zuhra opa Tolipovani yodga olgimiz, oz bo'lsa-da, sizlarga ham tanishtirgimiz keldi. Onaxonning qizlari Gulgona opa Ahmedovadan xotiralarini so'zlab berishni iltimos qildik:

-Onam haqida yozishga shaylanib, qo'limga ruchka oldim-u, qay biridan boshlashni bilolmay, o'ylanib qoldim. Yaxshisi, ularning bolalik xotiralaridan boshlay qolay-a?

«Xadra maydonidan yurib kelsangiz Balandmasjid degan joy bo'lardi. (Hozir qator savdo do'konlari joylashgan). Shu yerda dadamning do'stlari shoir Miskinning kichkinagina do'konchasi bo'lib, unda

tirikchilik uchun zarur bo'lgan mayda-chuydalar sotilardi. Uydalar biror yumush bilan meni do'konga chiqarishsa, «xo'p bo'ladi», deb yugurardim. Chunki Miskin domlaning kichkinagina elektr quvvati bilan ishlaydigan hisob-kitob mashinkasi (hozirgi kalkulyator) bor edi. Salom berib do'konga kirardim-u, o'sha mashinkani barmoqlarim bilan bosa boshlardim. «Tegma, buzib qo'yasan. Men senga albatta yozuv mashinkasida ishlashni o'rgataman, qizim», -derdilar domla.

Matn teruvchilik kasbini egallashimga Miskin domla sababchi bo'lganlar. Sobira opa esa ustozlik qilganlar. Bu mashaqqatlari, sharaflari, noni halol kasbni juda yaxshi ko'raman. Shuning uchun ham bu kasbni 40 yildan ziyod ardoqlab keldim. Barmoqlaringni bir-bir bosib harf terasan, matnning to'g'ri va tez yozilishini nazorat qilasan. Yozganlaring gazeta va jurnalda yoki kitob bo'lib chop etilsa, quvonasan. Shunda barcha charchoqlaring unut bo'ladi. Qanchadan-qancha odam bahramand bo'ladi mehnatingdan. Bu baxt-ku, axir!..»

Onam matn teruvchigina bo'lib qolmay, turli mavzularda maqolalar, hikoyalar, xotiralar, hajviyalar ham yozib, respublika gazeta - jurnallarida muntazam qatnashib

CRAQQON BARMOQLAR



Zuhra opa shoirlar Mirtemir va Cho'lonponlar davrasida. (R.ALBEKOV fotosi).

Tahririyatga o'zbek

XANDALAR

-Dada,-dedi Shohista,-ertaga ota-onalar majlis bo'lar ekan, borarmishsiz.
-Majlisiga?-gapga aralashdi Nodira. -Yo'q, bormaydilar!
-Voy, nega? O'qituvchimiz aytdilar-ku.
-Nima, sen ham dadamning majlisiga borganmisan?
-Oyi, bitta o'n tiyin, bitta yigirma tiyin bering...
Bog'cha opamla kinoga olib boradilar,-dedi Shoira.
Onasi Shoiraga ikkita 15 tiyinlik berdi.
-Yo'q, buni olmayman,-yer tepindi qiz.-Opam bitta o'n tiyin, bitta yigirma tiyin deganlar!

Zuhra TOLIPOVA.

*

turganlar. Bobolari hofiz Abdulla bulbul haqidagi hikoyalari shu gazeta sahifalarida sonma-son berilgan.

Yodimda bor, Furqat, Mulla Qo'shoq-

Miskin haqidagi xotiralar ham jamoatchilikni befarq qoldirmagandi.

«Saodat» jurnaliga muharrirlik qilgan marhuma shoiramiz Zulfiya opa (Olloh rahmatiga olgan bo'lsin) ham «Mening qalamkash do'stim» deya onamni bag'rilariga bosganlari hecham yodimdan chiqmaydi.

Onam ishlagan davrda «Tong yulduzi» gazetasi «Lenin uchquni» deb yuritildi. U paytda kompyuterlar bo'lmagan. Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar avval uch yo'lda ko'chirilib, bo'lim xodimlariga tahrir uchun berilardi. So'ng, yana qayta ko'chirilardi. Demak, matn teruvchilar uchun ish serob bo'lgan. Shunday bo'lsa-da, onamning biror marotaba ishlaridan noliganlarini, «charchadim» deganlarini eslolmayman...

xalqining G'afur G'ulom, Shayxzoda, Abdulla Qahhor, Mirtemir, Shuhrat, Said Ahmad kabi zabardast shoir va yozuvchilari o'z asarlarining qo'lyozma nusxalarini ko'tarib kelishar, onam ularni oqqa ko'chirib berardilar. Shunchaki ko'chiribgina qolmay, asarning birinchi o'quvchisi sifatida o'z fikr va mulohazalarini ham bildirardilar.

Onajonim uyda ham tinch o'tirmsadilar. Siz bilan suhablashib o'tirgan bo'lsalar ham, barmoqlari bexato harflarni teraverardi. ularning bu fazilatlarini hamkasbleri Safar aka (marhum), Fayzi Shohismoil, Erkin Malikov va boshqalar ham ko'p eslashadi. Qarindoshlar yodida ham ONAJONimdan faqat yaxshi xotiralar qolgan. Bag'rikeng, mehribon ayol bo'lganlari uchun ham ayrim hamkasbleri «oyi» deb atashardi.

Uzoq yillar mobaynida shu kasbning nonini yegan Mavjudha opa, Xursanoy opa, Surayyo opa, «G'uncha» jurnalida ishlagan Mukambar opa (marhuma), «Saodat» jurnalida ishlagan

Nabira opa, «Tong yulduzi» gazetasida ishlagan Nasima opa (marhuma)lar onamni o'zlariga ustoz deb bilishadi. Mehr va sabr bilan ularga o'z kasblarini o'rgatganlarini, ularni o'z farzandlaridek ko'rib, o'qishlari, turmush quishlarida ham befarq bo'lmaganlarini xotirlab yurishadi. Biz farzandlari - olti qiz ham Onamiz kasbini ardoqlab, shu kasbning nonini yeb kelyapmiz.

Hamisha uyg'oq xotira

USTOZ KO'ZLARI



«Toshkent binokori» gazetasiga musahhih bo'lib ishga kelgan ilk kunlарim edi. Xonamizga ko'kishga moyil ko'zlar kulib turuvchi kishi kirib keldi. Salomlashgach, o'qishim, ishlarim, nimalar yozishim haqida so'radilar.

-Mana endi qalamingizni sinaymiz,-dedilar jilmayib. Keyin, yangi qurilayotgan «Osijo» (hozirgi «Zarafshon») restorani qurilishidan maqola yozib kelishimni topshirdilar.

-Bu kishi bo'lim boshlig'i Po'lat aka Nishonov, qalami qayralgan jurnalist,- tanishtirdi katta musahhihimiz Muyassar Qosimova Po'lat aka chiqib ketgach. Men ko'tarinki ruh bilan qurilish ob'ektiga yo'l oldim...

-Muhabbatxon, maqolangizdagи «Ko'tarma kranlarni tumshug'ini ko'kka tiragan layklarga o'xshatganingiz yangi o'ziga xos tashbeh bo'libdi, barakalla, - deb maqtob qo'yidilar. Shu-shu gazeta uchun nimaiki yozsam, Po'lat aka nazoratidan o'tkazib oladigan bo'ldim. Ana shunaqa yoshlarga mehribon, kamtar, samimi y inson edi Po'lat aka.

Mana 30 yillardiki, qo'limga qalam olib, maqola, ocherk, hikoya yozishga kirishsam, Po'lat akaning ustozga xos sinovchan nigohini sezaman. U kishiga manzur bo'ladigan qilib yozishga intilaman.

Bu narsa u kishi yozgan hikoya, she'rlarda ham o'z ifodasini topar edi. Uning she'rlarini bir so'z bilan inson qalbi manzaralari desak xato bo'lmaydi. Bu she'rlarni o'qigan she'rxon Vatan degan muqaddas tuyg'uni yana bir nigoh, o'zgacha ovoz bilan anglaydi, tabiatni o'zi payqamay qolgan inja nuqralarini topib oladi. Mehr-oqibat, samimi tuyg'ulari uyg'onadi qalbida.

Muhabbat HAMIDOVA.

TOSHKENTIM

Oydan uzib olingen bir nurdeksan,
Ertaklarda ta'riflangan hurdeksan,
Dengizlardan izlab topgan durdeksan-
Yangi kuning qutlug' bo'lsin, Toshkentim,
Bag'ring do'st-u yorga to'lsin, Toshkentim!
Sayyoralar boshing uzra parvona,
Sensan-barcha farzandlarga teng ona.
O'zbegimning beshigisan yagona-
Yangi kuning qutlug' bo'lsin, Toshkentim,
Bag'ring do'st-u yorga to'lsin, Toshkentim!
Yoshsan, garchi ikki ming yil yoshing bor,
Ofatlarni yengmoqqa bardoshing bor,
Do'stga non-tuz, g'animgarga toshing bor -
Yangi kuning qutlug' bo'lsin, Toshkentim,
Bag'ring do'st-u yorga to'lsin, Toshkentim!
Bayrog'ingda porlar do'stlik nishoni,
Yozmoq ahding, «tinchlilik» degan inshoni.
Sen yurtimning yuragisan, iymoni -
Yangi kuning qutlug' bo'lsin, Toshkentim,
Bag'ring do'st-u yorga to'lsin, Toshkentim!
Yetimlarga ona bo'lgan shaharsan,
Mehri poydor, nurga to'lgan shaharsan,
G'uborini shabnam yuvgan shaharsan -
Yangi kuning qutlug' bo'lsin, Toshkentim,
Bag'ring do'st-u yorga to'lsin, Toshkentim!

Po'lat NISHONOV.

Otalar yozadi

OILA

Xonadonga kirsa gar yolg'on,
Parokanda bo'lur oila.
Sarob bilan yo'g'rilib vijdon,
Yolg'on xanda bo'lur oila.

Oilada poklik, halollik,
Sof niyatlar ulug'lanmasa.
Farzandlari tark etib imyon,
Befayz banda bo'lur oila.

Onaizor bo'lsa vafodor,
Ota-bola mehriga payvast.
Gar onaning niyati yomon,
Ko'p sharmanda bo'lar oila.

Ota-ona xulqi-atvori,
O'rnak bo'lsa bolalariga.
Xalq oldida hurmatga loyiq,
Havasmanda bo'lur oila.

Gar adolat istasang Ozod,
Pirxona bil xonadoningni,
Oilingga kirmasa yolg'on,
Hur chamanda bo'lur oila.

Ozod KARIMOV.

Buvijon, dodajon! Assalomu alaykum! Tug'ilgan kuni munosabati bilan Javlonga internetdan yuborgan musiqali va guldastali tabrigingizni oldik! Javloningiz juda xursand!

Bugun bog'chasidan ham o'zida yo'q xursand chiqdi. Peshonasiga bog'cha opalari qizil yulduzcha yopishtirib qo'yishibdi. Xitoydag'i bog'chalarda kuni bilan mashg'ulotlarda faol qatnashgan, odobli bo'lib yurgan bolalarning peshonasiga shunday yulduzcha yopishtirib qo'yishadi. Bunday bolalarga ko'chada hamma e'tibor beradi.

Bog'cha yo'lidagi do'konlar sotuvchilarini uning yulduzini ko'rib, «O, Ja u lan! O, xao xaydze!» («O, Javlon! O, yaxshi bola!») deb qarshi olishdi.

Javlonning bog'chasi Urumchidagi eng katta va namunali bog'cha hisoblanadi. Darvozadan kirishning o'zidayoq har kuni ularni shifokor va hamshiralar bog'cha opalari bilan birgalikda qabul qilib olishadi. Darvozaning yonidayoq bog'kirayotgan har bir bolaning kiygan ikki hamshira bolalarning tishi kariyes bo'lmashligi uchun. Dori achchiq emas. Bolalar jon deb og'zilarini ochib turishadi.

Til bilmagani uchun uni xitoycha bog'chaga berayotganimizda juda xavotir olgandik. Axir bog'cha opalarning hammasi-xanzular (xitoylar), ular o'zbekcha yoki ruschani bilishmaydi. Shunda dadamlar:

-Yo Javlon xitoycha gapirishni o'rganadi yoki bog'cha opalarini o'zbekcha gapirishga o'rgatadi... -deb hazillashgandilar.

Mana endi o'zi ham qiziqib ketdi. Kunda erta bilan «Men kichkina matabga boraman», deb otlanishga tushib qoladi.

Xitoy bog'chalaridagi guruhlarda bolalar ko'p. Ammo bog'cha opalar, enagalar ham yetarli. Yangi kelgan bola o'rganib, ko'nikib ketguniga qadar, o'n-o'n besh kun uning o'zi bilan alohida bir tarbiyachi shug'ullanar ekan. Bolaning fe'lini, ko'nikmalarini yaxshilab o'rganib, keyin boshqa bolalar guruhiga qo'shishar ekan. Boshqa bog'cha opalar unga birinchi bog'cha opa maslahati bilan muomala

Buvimga maktublar

JAVLONNING



Bog'cha hovlisidagi raketada Javlon kunda
chaga
og'ziga oq xalat
allaqday dori purkaydi. Bu
bo'lmashligi uchun. Dori achchiq emas.
Bolalar jon deb og'zilarini ochib turishadi.


qilisharkan.

Javlon bir yil ichida bemalol xitoycha gaplashadigan bo'ldi, xatto she'r va qo'shiqlar aytynapti. Toshkentga borganimizda sizlarga ham qo'shiqlar aytib beradi.

Javlonning bog'chasida o'yinchoqlari nihoyatda ko'p. Hovlida ham bolalar maydonchasi bo'lib, unda arg'imchoqlar, aylanib uchadigan raketa va sirpanchiqlarning ko'p xillari bor. Bog'chadagi bayramlarning ko'pi shu yerda o'tkaziladi. Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni 1-iyunda bog'cha hovlisida katta bayram bo'ldi. Javloningiz, xanzu, uyg'ur va boshqa millat bolalari rosa e'tibor beradi.

Kechqurun Javlonning bog'chasidan uning tug'ilgan kuniga deb atay tayyorlab

YULDUZI



Yulduzcha oiganidan «kuchi ko'payib»,
hatto meni ham «opichlab» oldi. Toping-chi,
kim kimni ko'tarib turibdi?

sovg'a qilib berishgan VSD disketini ko'rdik. Unda Javlonning yangi bog'chaga chiqqan vaqt, mashg'uylotlardagi ishtiroti, bog'cha hovlisidagi o'yinlari aks ettirilgan.

Bog'chaning bolalar o'ynaydigan, ovqatlanadigan, ugraydigan joyi bitta katta xona. Ertalab bolalar yig'ilgach, xuddi maktabdagidek ro'yxat bo'yicha hammaning oti aytib chaqirilarkan. Keyin bizning xontaxtamizdan sal balandroq stollar xona o'rtasiga olinib, bolalar ovqatlanishar ekan. Keyin uch guruhga bo'linib, birga mashg'ulot o'tishar ekan. Tushki ovqatda stollar yana o'rtaga olindi. Bolalarning oldida

qo'shcho'plar (kuaydze) ham bor. Bizning Javlon qoshiqda ovqatlanar ekan. Bolalar ovqatdan so'ng qo'llarini yuvib, zaruratxonaga kirib chiqqunlaricha, bog'cha opalarning ikkitasi bir-birining ustiga yig'ilgan pastdekkina kravotlar to'shaklari bilan birga yerga qator qilib qo'yishdi. Javlon ham kiyimlarini asta taxlab, yumshoq ko'rpalarini ustiga tortib yotdi. VCDni ko'rib bo'lishimiz bilan Javlon:

-Men «Javlon kinosi»ni buvijonga yuborishim kerak, -deb kompyuter oldiga o'tirdi.

Xullas, shunaqa gaplar. Buvijon, tez orada keyingi maktubimni ham yuboraman.

Hammamiz sizlarni juda-juda yaxshi ko'ramiz. Nabirangiz Kamron.

Xitoy Xalq Respublikasining URUMCHI shahri.

R.SHOMANSUROVA tayyorladi.
Suratlar muallifniki.

«MENING OMADIM CHOPGAN...»

Yulduzlar bilan suhbat

Aytaylik, bir taniqli san'atkorni ko'rib qoldingiz, nima qilgan bo'lardingiz? Yugurib borib, dastxatini olishga shoshasiz-a? Uzoqroq suhbatlashgingiz, ular haqida ko'proq bilgingiz keladi-yu, afsus, iloji yo'q-da, doimo vaqtiali ziq bo'ladi. Bu borada mening omadim chopgan, bir emas ikki nafar taniqli san'atkor bilan mahalladoshmi. Ulardan biri - sevimli qo'shiqchimiz, «Nihol» mukofoti sovrindori Isroil aka Saidumarov bo'ladilar.

Kichkinagina bir qiz bo'lsam, ular taniqli san'atkorlar, meni qabul qilarmikanlar, degan hadikda uylariga borgandim. Buni qarangki, o'zlar ham, onalari ham juda mehmono'st, kamtar va samimiy insonlar ekan. Meni ko'proq bolalik-damlari, xotiralari, orzulari qiziqtingani uchun ham suhbatni aynan shundan boshladik:

-Balaligimda maktab sahnasida qo'shiqlar kuylab yurardim. Shundanmi, sho'x, o'yinlar qolalar maktabdan kelishimni poylab turishardi. Ko'rinishim

bilan atrofimni o'rab, qo'shiq aytil berasan, deb turib olishardi. Hatto bir kuni qo'shiq aytmaganim uchun daraxtga bog'lab ham ketishgan...

-Bolaligingizda gazeta va jurnallar o'qib turarmidingiz?

-O'qishga unchалик qiziq madim



Lekin keyingi paytlarda juda ko'p kitob o'qiyapman.

-Qo'shiqchi bo'lishingizga nima tutki bo'lgan?

-Onamning allasi sut bilan birga yuragimga kirib, qo'shiq kuylashga muhabbat uyg'otgan, desam adashmayman. Yoshligimda hamma kasblarga qiziqqanman. Lekin san'atkaga bo'lgan mehrim ustunroq keldi.

-Maktabda qanday o'qigansiz?

-Rasm va musiqa darslarini yoqtirardim. Kimyo, algebra fanlarini umuman tushunmasdim.

-Birinchi qo'shig'ingizni necha yoshingizda ijro etgansiz?

-Olti yoshimdanoq taniqli san'atkorlarning qo'shiqlarini xirgoyi qilib yurardim.

-San'atdan boshqa ham sevimli mashg'uletingiz bormi?

-Sportning stol tennisi turiga qiziqaman. Vaqtiga bilan shug'ullanib ham turaman.

-Farzandlaringiz qo'shiqchi bo'lishini istarmidingiz?

-Agar Xudo yuqtirgan iste'dodi va san'atga bo'lgan muhabbat kuchli bo'lsa, rozi bo'lardim. Lekin, san'atkor bo'ladimi, shifokormi, o'qituvchimi - o'z kasbining ustasi bo'lsa, bas.

-«Tong yulduzi» gazetasi o'quvchilariga tilaklariningiz.

-Ota-onalari baxtiga sog'-omon bo'lishsin. Kelajak ularning qo'lida ekanligi, chuqur anglab, xalqimiz ishonchini oqlaydigan insonlar bo'lib kamol topishsin.

-Samimiy niyatlariningiz uchun rahmat!

Toshkent shahar, Uchtepa tumanidagi 116 - maktabning 6 - sinfi o'quvchisi Shahnoza G'ANIYEVA suhbatlashdi.

Kattalar, e'tibor bering!

Zerikmaymiz bog'chada,
O'ynab turli o'yinchoq.
Eng yaxshisi telefon-
Bitta dona-da, biroq.

Bog'cha opam yoqtirmas,
Telefonda gaplarni.
Ba'zan yirtib tashlaydi,
Bizlar chizgan daftarni.

To'la opam sumkasi,
Sariyog'-u non, pishloqqa.
Bizga bergancha esa,
Urvoq bo'lmas mushukka.

Bog'cha opam yoniqa,
Keldim lentam to'g'rilib.
Dedim: Sochingizni ham,
Olganmisiz o'g'irlab?

Jahli chiqdi, qizardi,
Bor, o'rningga yot, dedi.
Soch ham tarab bo'lmaydi,
Dastlaringdan dod, dedi.

Telefonda ikki qiz,
«Allo-allo» o'ynardik.
Ra'no:- Allo, oyijon!
Biz ovqatga to'ymadik...



Bergan shirguruchidan,
Tosh-u sholi chiqadi.
Non ustida sariyog',
Juda-juda yupqadir...

Men Ra'no oyisidek,
«Allo», deya so'z qotdim.
Kechki ovqatga albat,
«Palov», deya yupatdim.

Ra'no, dedim do'stimga,
Bo'lamiz bir kun katta.
Ovqat o'g'rilarini,
Va tutamiz albatta.

...Bir kun bog'chamiz rosa,
Bayramga o'xshab ketdi.
Bilsak, bir nechta opa,
Tekshirish uchun kepti.

Bizga rasm chizdirdi,
Qalam berib bir yo'la.
Ra'nuning chizganini,
Olishdi kula-kula.



Rustam paravoz chizdi,
Olim militsioner.
Dono pishloq chizibdi,
Adiba bahaybat sher.

Ra'no bog'cha opamning,
Sumkasini chizibdi.
Pishloq, sariyog' to'latib,
«To'ldi», deb ham yozibdi.

O'sha kuni bog'chada,
Bayram bo'lidi, soz bo'lidi.
Shirin-shirin ovqatlar,
Mazza, talash oz bo'lidi.

Lekin, bog'cha opamiz,
Yig'ladilar o'sha kun.
Sumkasi ham bo'sh ketdi,
Kelmadilar boshqa kun.

Allo-allo, telefon,
«O'sha opamlar» kelsin.
Har zamonda bo'lsa ham,
Bog'cham bayramdek bo'lsin!

Salomat G'OYIBNAZAROVA, shifokor.

FE'LGI MAMDAN

(Hikoya)

sumkasini qo'liga oldi-yu, yolg'izoyoq yo'ldan uylariga ravona bo'ldi. Ertasiga o'zidan ikki parta oldinda o'tiradigan Sayyora va Iordaning kecha sinfdoshlari Bahromning tug'ilgan kuniga kim eng qimmatbaho sovg'a olib borganligi haqidagi bahsi biroz vaqt o'tib dahanaki jangga aylanmaganida, bu yangilikdan ham-bexabar qolardi. Qovog'idan qor yog'ilayotgan Iroda Sayyoraga yaqinlashdi-da, uning bo'ynidagi ingichka tilla zanjiriga chang soldi. O'z navbatida Iroda ham uning sochidagi to'g'nog'ichini shartta yulib oldi-yu, yerga uloqtirdi.

-Voy, bunday qilmanglar, uyat bo'ladi,-dedi Sojida qizlarni tinchlantirmoqchi bo'lib.

-Sening nima ishing bor, bilag'on kampir,-dedi uzilib ketgan zanjirining bo'laklarini yig'ib olayotgan Sayyora yig'lamoqdan beri bo'lib.

-O'zi sen yetishmay turuvding, nasihatningni katta xolingga qilasan, - to'ng'lladi to'zg'igan sochlarini tartibga solayotgan Iroda jahl bilan.

Tavba, biringa tug'ilgan kun deb ikkalovi san-manga borib qolishdi-ya!

Darslar tugab, hamma uy-uyiga tarqaldi. Muyulishga yetgan Sojida yo'l chetida besh-olti nafar sinfdoshlarining hamon «tug'ilgan kun» mojarosini davom ettirishayotganini ko'rди va buvisining «Gap quvgan - uyatga qolar, ish quvgan - murodga yetar», degan nasihatlarini eslab, birinchi marotaba o'z fe'lidan xursand bo'lib qo'ydi.

Jamila ERDONOVA.

O'RGILAY...

Sojida tabiatan tortinchoq qiz. Shundan bo'lsa kerak, sinfdosh qizlariga ko'pam qo'shilavermaydi. Har kungi odatiga ko'ra ertalab sinfga kiradi-da, bir partaga to'planib olib, bir-biriga gal bermay so'zlashayotgan qizlarga sekingina salom bergancha o'z o'miga borib o'tiradi va sumkasidan kitob-daftarlarni olib, uy vazifalarini takrorlashga tushadi.

Tortinchoqligi sabab qizlarning har kungi tezkor «mish-mish»lari uyoqda tursin, hatto xursandchilik bilan nishonlanadigan ayrim tug'ilgan kunlaridan ham bexabar qoladi.

Bugun ham shunday bo'ldi. Darslar tugagach,



BILAG'ON BOLALAR DIQQATIGA!

Siz gazetamiz sahifalarida uchraydigan xatolarni albatta topib, bizga ma'lum qiling. Chunki atayin bilag'on va topag'onligingizni sinash maqsadida harflar tushirib qoldiriladi yoki qo'shib yoziladi. Tinish belgilari o'z o'rnida ishlatilmaydi.

Maqsadimiz: Bilimli bo'ling, chunki osmonni yulduzlar, yerni esa bilimlilar bezar.

Om yurting - oltu beoling
TONG yulduzi

BOSH MUHARRIR:

Umida

ABDUAZIMOVA

TAHRIR HAY'ATI:

Turobjon JO'RAYEV

(O'zbekiston Xalq Ta'limi vaziri),

Dilbar ALIMJONOVA

(«Sog'lom avlod uchun»

hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya jamg'armasi ijrochi direktori),

Qahramon QURANBOYEV

(«Kamolot» YoIH markazi kengashi raisi vazifasini bajaruvchi),

Jabbor RAZZOQOV

(«O'zbekiston» NMIU bosh muharrir o'rinnbosari),

Dilmurod RAHMATILLAYEV

(Andijon viloyati, Xalq Ta'limi boshqarmasi boshlig'i),

Dilshoda DADAJONOVA

(Namangan viloyati Xalq Ta'limi boshqarmasi boshlig'i),

Feruza JALILOVA

(Bosh muharrir o'rinnbosari),

Sobirjon SHARIPOV

(Xorazm viloyati Xalq Ta'lim boshqarma boshlig'i),

Nurxon NAFASOV,

Ergashvoy SARIQOV

(tadbirkor olim).

Gazeta O'zbekiston
Matbuot va axborot agentligida

022-raqam bilan 2003-yil 11-dekabrda ro'yxatdan o'tgan.

Noshir:

«O'zbekiston»

nashriyot-matbaa ijodiy uyi.

Gazeta

«O'zbekiston»

nashriyot-matbaa ijodiy uyi kompyuter bo'limida terib sahifalandi va chop etildi. Gazeta haftaning dushanba kuni chiqadi, Hajmi A-3, 2 bosma taboq.

Adadi - 17513

Buyurtma N: J 2775

Dizayner va sahifalovchi:

Fazliddin SHAYADGAROV

Navbatchi:

Muharrama PIRMATOVA

Musahhih:

Nargiza ABDULLAYEVA

Rassom:

Nodira MIRZAYEVA

Manzilimiz:

700129,

Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy.

Obuna indeksi: 198.

e-mail:

tong_yulduzi@rambler.ru

Tel: 144-27-25

144-63-08

Tel./faks:

(99871) 144-38-10